

2024 YIL UCHUN TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RIDA

4294982 -SONLI ABONENT SHARTNOMASI

Yuridik shaxslar (shu jumladan, byudjet tashkilotlari) uchun

Samarqand shahri

2024 yil "26" 01

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) nomidan 2023 yil 29-dekabrda 27-01-24/4360-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Samarqand filiali direktori **T.Sultanov** (keyingi o'rinlarda – Operator) bir tomondan va **Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti** nomidan Nizom (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi K.B. Sumsoza (keyingi o'rinlarda – Abonent) ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda birgalikda - Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

- Operatorning WWW.UZTELECOM.UZ rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan Ommaviy ofertasi (keyingi o'rinlarda – Oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsis qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o'z huquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradilar.

3. Hisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko'rsatilganidan keyin to'lovni amalga oshirish (**Postpaid**) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'implarni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab **3 (uch) bank kuni** mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent to'lovi **100 (bir yuz) foiz** miqdorida oldindan to'lanadi. Dastlabki avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (hisob) asosida hamda ushbu Shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. **Byudjet tashkiloti bo'lgan Abonent uchun** Shartnomaning umumiy so'mmasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiy miqdori 4 oy uchun 1083920 (Bir million sakson uch ming elli yuz yigirma) so'mni tashkil etadi. Undan 1 oy uchun 270930 (ikki yuz etish ming toqquz yuz oltiz) so'm miqdorida oylik abonent to'lovi, shu jumladan **12% QQS** miqdorida.

3.4.1. Mazkur Shartnomaning umumiy so'mmasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha so'mma Tomonlar o'rtasida imzolangan qo'shimcha kelishuvG'taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent ushbu Shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab **3 (uch) bank kuni** ichida ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Operatorning Shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'laydi.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa yoki mazkur Shartnomaning 3.5-bandida ko'rsatilgan muddatda har oylik hisob-faktura bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishiga asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaqtincha to'xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Operatoridan bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, Shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent **10 (o'n) ish kuni** mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma yoki elektron shaklda taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

3.10. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo'lganida **1 (bir) kalendar oydan** oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga xizmatlardan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

4. Tomonlarning javobgarligi

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajaraganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo'ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

5. Nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Tomonlarning ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rioya qilingan holda o'zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

5.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv orqali hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. Alohida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish davrida o'z huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini normalarini buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat'iy e'tirof etgan holda, o'zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta'minlash va korrupsiya holatlariga murosasiz kurashish choralari ko'radi.

6.2. Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan har qanday holatlarda va hodisalarda (engib bo'lmaydigan kuchlar/fors-major holatlari) Ofertaning 10-moddasi qoidalariga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza e'tiroznoma shikoyat taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Shartnomaning barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

7.2. Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va **2024 yil 31 dekabr**ga qadar amal qiladi. Agar, Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, Tomonlar (byudjet tashkiloti bo'lgan Abonentga tatbiq etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. **Byudjet tashkiloti bo'lgan Abonent** uchun ushbu Shartnoma vakolatli davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va **2024 yil 31 dekabr**ga qadar amal qiladi.

7.2.2. Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi - Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.


7.3. Ushbu Shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq Shartnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari (mulkdorlari) o'zgarigan taqdirda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda Shartnoma o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, **10 (o'n) kalendar kun** ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan hamda tomonlarning muhrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

7.6. Ushbu Shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va har bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi.

8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

OPERATOR:	ABONENT:
"O'zbektelekom" AK Samarqand filiali	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Manzil: Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 92.	Manzil: Samarqand sh. M.Ulug'bek ko'chasi 77-uy
Bank ma'lumotlari:	Bank ma'lumotlari:
x/r: 20210000804074838397	Tel./ Fax + (99866) 234-78-92, 234-78-88
STIR: 203366731	STIR: 100010860184017054100250001
MFO: 00401	INN: 201878451, OKONX: 92110 Moliya vazirligi
ATB "Alokabank"	MFO: H/v: 2340 2000 3001 0000 1010
Tel: 1155, 66234-7553, 66240-0011	Bank nomi: Markaziy bank XPKM Toshkent shahri boshqarmasi
E-mail: samtel@uztelecom.uz;	MFO: 00014 INN: 201122919
Operator nomidan:	Abonent nomidan:
 T.I. Sultanov	 I.K.B. Gurugor

Operator nomidan:

T.I. Sultanov

m.o.

Abonent nomidan:

I.K.B. Gurugor

*Beatto qurilgan ust
N. Beccet A. Esbmamatoov*

2024 YIL UCHUN TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RSIDA
4294982 -SONLI ABONENT SHARTNOMASIGA
1-ILOVA

2024 yil "26" 01

Ko'rsatilayotgan xizmatlar

1. Xizmatlar va tariflar ro'yxati

(O'lchov birligi - Milliy valyuta - (so'm))

No	Xizmat nomi	QQS bilan narxi (miqdori)	Asos	Miqdori	Oylar soni	Narxi (qiymati) QQS bilan
1	2	3	4	5		6
I. Bir martalik to'lovlar						
II. Oylik to'lovlar						
2.1	Bir oylik abonent to'lovi "Oddiy" tarif rejasi (180 minut, limitdan ortiq so'zlashuv 12 so'mdan)	7 940,00	125-1/7-sonli narxnomaga muvofiq amalga oshiriladi	31		246 140,00
2.2	Qo'shimcha xizmat turlari (telegraf, faks, AON, parallel, p'ryamoy provod, parol, soyed. liniya, p'ereadr., oxran. sign. va x.k.)	24 790,00	125-1/7-sonli narxnomaga muvofiq amalga oshiriladi			24 790,00
Jami:						270 930,00

Shartnomaning umumiy miqdori: 4 oy uchun 1083720 (Bir million sakson uch ming 720) so'mni tashkil etadi. Undan **270 930,00** (ikki yuz yetmish ming to'qqiz yuz o'tiz) so'm miqdorida oylik abonent to'lovi, shu jumladan 12% QQS miqdorida.

Yuqorida ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlar "O'zbektelekom" AK ning 2023 yil 13 oktabrdagi 294 son buyrug'i bilan tasdiqlangan tariflar narxnomalari (preskurant) barcha soliqlarni inobatga olgan holda ko'rsatilgan.

OPERATOR:
"O'zbektelekom" AK Samarqand filiali

ABONENT:

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Operator nomidan:

Abonent nomidan:

m.o'.



T.I. Sultanov



I.B. Yunusov